



# Reflections on Women's Labor Protection in Industrial Enterprises of Andijan and Namangan Regions (based on the analysis of documents from the State Archives of Andijan and Namangan regions and articles published in periodicals from 1946 to 1970)

Sherzod TURGUNOV<sup>1</sup>

Fergana State University

## ARTICLE INFO

### **Article history:**

Received December 2024

Received in revised form

15 December 2024

Accepted 20 January 2025

Available online

15 February 2025

### **Keywords:**

labor protection,

Labor Code,

Andijan Sewing Production  
Association,

Qo'gay Cotton Ginning Plant,

Industrial Construction

Insurance Fund,

Communist newspaper,

Stalin's Truth newspaper.

## ABSTRACT

This article presents information on the actual state of measures implemented within the framework of labor protection for women employed at industrial enterprises operating in Andijan and Namangan regions from 1946 to 1970. It also discusses the significance of processes carried out in the field of social protection for women during this period.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss1/S-pp278-287>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

<sup>1</sup> Doctoral student, Department of History of Uzbekistan, Fergana State University. E-mail: [turgunovs979@gmail.com](mailto:turgunovs979@gmail.com)

## **Andijon va Namangan viloyatlaridagi sanoat korxonalarida xotin-qizlarning mehnat muhofazasi haqida ayrim fikr mulohazalar (Andijon viloyati va Namangan viloyati Davlat arxivi fondlari hujjatlari va 1946–1970-yillarda chop etilgan vaqtli matbuot nashrlarida chop etilgan maqolalar tahlili asosida)**

---

### **ANNOTATSIYA**

---

**Kalit so'zlar:**

mehnat muhofazasi,  
Mehnat Kodeksi,  
Andijon tikuvchilik ishlab  
chiqarish birlashmasi,  
Qo'gay paxta tozalash  
zavodi,  
Sanoat qurilish sug'urta  
kassasi,  
kommunist gazetasi,  
Stalin haqiqati gazetasi.

Ushbu maqolada o'tgan asrning 1946–1970-yillarida Andijon, Namangan viloyatlarida faoliyat olib borgan sanoat korxonalarida mehnat faoliyati bilan shug'ullangan xotin-qizlarning mehnat muhofazasi doirasida amalga oshirilgan tadbirlarning haqiqiy holati haqida, shuningdek, xotin-qizlarning ijtimoiy muhofaza qilish borasida amalga oshirilgan jarayonlarning ahamiyati haqida ma'lumotlar taqdim etilgan.

## **Некоторые мнения по охране труда женщин на промышленных предприятиях Андижанской и Наманганской области (на основе анализа фондов Государственных архивов Андижанской и Наманганской области и статей, опубликованных в периодических изданиях, вышедших в 1946–1970 гг.)**

---

### **АННОТАЦИЯ**

---

**Ключевые слова:**

Охрана труда,  
Трудовой кодекс,  
Андижанское швейное  
производственное  
объединение,  
Когайский  
хлопкоочистительный  
комбинат,  
газета  
«Коммунистический фонд  
страхования  
промышленного  
строительства»,  
газета «Сталинская  
правда».

В данной статье представлена информация о фактическом положении дел в сфере охраны труда женщин, работавших на промышленных предприятиях Андижанской и Наманганской областей в 1946-1970 годах, а также о значимости процессов, осуществленных в области социальной защиты женщин.

**KIRISH**

O'zbekiston SSR hududida 1946–1991-yillarda faoliyat olib borgan sanoat korxonalarida mehnat qilayotgan mehnatkashlar orasida xotin-qizlarning nufuzi ham ko'pchilikni tashkil etgan. Respublikaning yengil sanoat tizimiga mansub tikuvchilik, to'quvchilik sun'iy gazlamalar ishlab chiqaruvchi korxonalarida, badiiy buyumlar ishlab chiqarish fabrikalarida, farmatsevtika fabrikalarida, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi kombinat va zavodlarda mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan ishchilar orasida ayol ishchilarning soni erkak ishchilarga nisbatan ortiqroq bo'lgan. Bundan tashqari og'ir sanoatning mashinasozlik, kimyo, yoqilg'i ishlab chiqarish kabi turlariga oid zavod va kombinatlarda ham ko'p sonli ayol ishchi va xizmatchilar mehnat faoliyatlari bilan shug'ullanganlar. Shunday bo'lsa-da ayollar organizmi o'ziga xos fiziologik xususiyatga ega bo'lganligi boisidan og'ir jismoniy mehnatga, ba'zi bir zararli omillarga (chang, inson tanasining juda qizib yoki sovib ketishi kabi) juda ta'sirchan ekanligi ularning erkaklar bilan bir xil mehnat sharoitlarida mehnat qilishiga to'sqinlik qiladi. Ayniqsa inson sog'lig'i uchun zararli ish sharoitlarida mehnat qilish homiladorlik holatida mehnat qilayotgan ayol ishchi va xizmatchilarga homiladorlik davrini salbiy o'zgarishlar bilan yuz berishiga, jiddiy asoratlar qoldirishi (toksikoz, bola tushib qolishi, bolaning o'lik tug'ilishi kabi) farzand tug'ish funksiyalarini buzilishi (farzand ko'rmaslik), avloddagi o'zgarishlar (bolaning erta tug'ilishi, nogiron tug'ilishi kabi)ga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun ayollar mehnatini muhofaza qilishda ko'plab muammolar doimo mavjud bo'lib, uning biologik va ijtimoiy jihatlarini hisobga olish muhim o'rin tutadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Mustaqil O'zbekistonda aholining keng ommasini iqtisodiy-ijtimoiy ahvolini yaxshilash, farovon turmush tarziga ega bo'lishi uchun bugungi kunda davlat miqyosida keng miqyosda islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda aholining ish bilan ta'minlamagan qismini doimiy ish o'rinlari bilan ta'minlash, aholing kambag'al qismini kambag'allik darajasidan chiqarish eng asosiy maqsad sifatida ilgari surilmoqda. Bu jarayonda yangi tashkil etilayotgan sanoat korxonalari va ularda ishchi va xizmatchilar uchun yaratilgan mehnat muhofazasi, tibbiy – sog'lomlashtirish tadbirlarining ahamiyati juda katta. Bundan tashqari keyingi yillarda davlat miqyosida xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan islohotlar natijasida, shuningdek, xotin-qizlarning ish bilan ta'minlash va ular uchun qulay va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratib berish yuzasidan olib borilayotgan amaliy ishlar juda katta ahamiyatga ega bo'lmoqda. Maqolada yoritilgan mavzuning ahamiyati shundaki sobiq sovet tuzumi davrida milliy respublikalarning turli viloyatlarida faoliyat olib borgan sanoat korxonalarida xotin-qizlarning mehnat sharoitlari, ularning sog'liklarini saqlash, ishlab chiqarishdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish yuzasidan amalga oshirilgan amaliy tadbirlarning asl holatini o'rganish va ushbu holatni yosh o'sib kelayotgan avlodga to'g'ri yoritib berish orqali yosh avlod vakillarida, shuningdek barcha yosh toifasidagi yurtdoshlarimizda bugungi kunda davlatimiz va hukumatimiz tomonidan aholining iqtisodiy, ijtimoiy, jismoniy jihatdan yetukligini ta'minlash maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlarning asl mazmuni va ahamiyatini yoritib berishda, shuningdek, shunday farovon hayotni qadrlash tuyg'usini rivojlantirishda ahamiyati katta.

**TADQIQOTNING AMALGA OSHIRILISHI**

Tadqiqot jarayonida Andijon, Namangan viloyatlarida 1946–1970-yillarda faoliyat olib borgan sanoat korxonalarining muhandis va texnik xodimlariga, ishchi va xizmatchilariga va ushbu korxonalarda tibbiy – sog'lomlashtirish xizmatining holatini

yaxshilash asnosida ushbu korxonalarda mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan muhandis va texnik xodimlar, ishchi va xizmatchilarning mehnat sharoitlarini yaxshilashda, ularning mehnat muhofazasini ta'minlash borasida mavjud holat bo'yicha erishilgan yutuqlar va kamchiliklar to'g'risida Andijon, Namangan viloyatlari Davlat arxivlarida saqlanayotgan sanoat korxonalarining faoliyatiga oid fondlarni va bundan tashqari Andijon viloyati partiya qo'mitasi va viloyat kengashining rasmiy nashri hisoblangan "Kommunist" gazetasining, Namangan viloyati partiya qo'mitasi va viloyat kengashining rasmiy nashri bo'lgan "Stalin haqiqati (1960-yillardan Namangan haqiqati)" gazetasining 1946–1980-yillarda nashr qilingan sonlarida e'lon qilingan maqolalarni o'rganish va tahlil qilish natijasida zarur ma'lumotlar qo'lga kiritildi. Bu jarayonda maqolaga oid ma'lumotlarni to'plash jarayonlari Andijon shahridagi Zahiriddin Muhammad Bobur nomli Axborot Kutubxona markazida, Namangan shahridagi Nodirabegim nomidagi Axborot Kutubxona markazi fondlarida saqlanayotgan o'tgan asrning 50–80-yillariga oid vaqtli matbuot nashrlari o'rganildi va ilmiy tadqiqot ishiga oid muhim ma'lumotlar qo'lga kiritildi. Bu jarayonda "Kommunist", "Stalin haqiqati (1960-yildan Namangan haqiqati)" gazetalarining 1946–1980-yillarda nashr etilgan sonlari va Andijon, Namangan viloyatlari Davlat arxivlarining fondlari xronologik tartibda ko'rib chiqildi. Ushbu gazetalarining deyarli barcha sonlarida sanoat yangiliklari rukni mavjud bo'lgan. Ushbu ruknda viloyatda sanoat sohasida yuz berayotgan muhim yangiliklar, sanoat korxonalarida ishchilar va xizmatchilar uchun yaratilayotgan mehnat sharoitlarida erishilayotgan yutuqlar va shu bilan bir qatorda mavjud kamchiliklar haqida, mehnatkashlarning sog'liklarini saqlash va mehnat qilish qobiliyatini qayta tiklash va ish unumdorligini oshirish yuzasidan bajarilgan tadbirlar, xususan, sanatoriylar, kurortlar va dam olish uylarida mehnatkashlarni o'z sog'liklarini tiklash va mustahkamlash bo'yicha bajarilgan amaliy ishlar va sanoat korxonalarining moddiy-texnik holati, ishlab chiqarish jarayonlariga tatbiq etilayotgan yangiliklar, sanoat korxonalaridagi novatorlik, ratsionalizatorlik faoliyatlari haqida va viloyatdagi zavod va fabrikalarning davlat tomonidan qo'yilgan mehnat majburiyatlarini bajarish sohasidagi yutuqlari va kamchiliklari haqida ham ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu ma'lumotlarni o'rganish jarayonida qiyosiy taqqoslash usullaridan ham foydalanildi. Bu jarayonda xuddi shu davrda sobiq sovet ittifoqining markaziy hududlarida, xususan RSFSRdagi sanoat korxonalari yoki sovet ittifoqining markaziy hududlarida joylashgan Ukraina SSR, Belorussiya SSR kabi respublikalardagi sanoat korxonalarida ishchilar uchun yaratilgan mehnat sharoitlari va mehnatkashlarning mehnat muhofazasi haqida va ushbu hududlardagi zavod va fabrikalarda ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etilgan eng yangi jihozlar va uskunalar va ularning afzalliklari, ishchilarning mehnat muhofazasini ta'minlashdagi ahamiyati haqida ushbu gazetada berilgan ma'lumotlar bilan qiyosiy tahlil qilindi.

#### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Sobiq sovet ittifoqida xotin-qizlarni sanoat ishchilariga aylanish jarayoni 2-jahon urushi yillarida avj olgan jarayon bo'lib, O'zbekiston SSRning barcha oblastlaridan harbiy xizmat yoshidagi erkak ishchilarning harbiy xizmatga jalb etilishi natijasida zavod va fabrikalarda ishchi kuchining soni keskin qisqarishi va sovet ittifoqining urush bo'layotgan hududlaridan 300 ga yaqin sanoat korxonalarini O'zbekiston SSR hududiga ko'chirib keltirilib qisqa muddatlarda qayta ishga tushirilishi natijasida ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi zavod va fabrikalarda ayol ishchilar miqdorining ko'payishiga asosiy sabab bo'ldi. 2-jahon urushi yillarida O'zbekiston SSRning Andijon, Namangan, Farg'ona oblastlaridagi to'qimachilik, tikuvchilik fabrikalarida va qurilish

ashyolari ishlab chiqaruvchi g'isht zavodlarida, paxtani qayta ishlash zavodlarida, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida, qishloq xo'jaligi texnikalarini ta'mirlash korxonalarida asosiy ishchi kuchi ayollardan iborat bo'ldi. Ayniqsa urush yillarida qishloq xo'jaligi tizimida mehnat qilgan xotin-qizlarning fidoiy mehnatlari g'alabaga juda katta hissa qo'shgan. Ayol ishchilarning fidoiy mehnatlari natijasida O'zbekiston SSR hududidagi sanoat korxonalarida ishlab chiqarilgan harbiy qurol-aslahalar, kiyim-kechak mahsulotlari, oziq-ovqat mahsulotlari frontlarda dushman ustidan g'alaba qozonilishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 2-jahon urushidan keyingi davrdagi xalq xo'jaligini qayta tiklash jarayonlarida ham O'zbekiston SSR hududidagi, xususan, Andijon, Namangan, Farg'ona oblastlaridagi zavod va fabrikalarda mehnat qilib kelayotgan xotin-qizlarning faoliyatlari katta o'rin tutdi. Ma'lumki, urush yillarida sobiq sovet ittifoq hududidagi barcha sanoat korxonalarida mehnat qilayotgan ishchilar o'g'ir mehnat sharoitlarida mehnat qilishga majbur bo'lganlar. Urushdan keyingi tinch qurilish yillarida sanoat korxonalaridagi mehnat sharoitlari asta-sekinlik bilan ijobiy tomonga o'zgarib boshlaganligi sanoatning turli tarmoqlariga oid zavod va fabrikalarda, kombinatlarda mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan ayol ishchi va xizmatchilar uchun qulay mehnat sharoitlarini yaratila boshlanganidan ham ma'lum bo'ladi. O'zbekiston SSR hududida faoliyat olib borgan sanoat korxonalarida ayol ishchi va xizmatchilar uchun mehnat muhofazasi masalalariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, 1946–1991-yillar davomida ayollarning mehnatini himoya qilish masalasida bir qancha imtiyozlar va qulayliklar joriy etilgan. Sobiq Sovet tuzumi davrida mehnat qonunchiligida ayol ishchi va xizmatchilarni mehnatini muhofaza qilish borasida quyidagi imtiyozlar joriy etilgan:

### **1. Ish sharoitlarini yaxshilash masalasida:**

– O'gir va zararli mehnat sharoitlarda ayollar mehnati cheklangan yoki umuman ta'qiqlangan.

– Ayollar ishlayotgan sexlarda va boshqa ishlab chiqarish bo'limlarida maxsus xavfsizlik texnikalarini joriy etilgan.

– Har bir sanoat korxonasida ayollar uchun alohida sanitariya-gigiyena talablariga javob beradigan maxsus xonalar (misol uchun dam olish xonalari, bolalarni ovqatlantirish xonalari) tashkil etilgan.

### **2. Ish vaqti va mehnat ta'tili masalasida:**

– Ayol ishchi va xizmatchilar uchun qisqartirilgan ish kuni yoki ish haftasi joriy etilgan. Bu jarayonda ayniqsa homilador ayol ishchi va xizmatchilar hamda yosh farzandi bor ayol ishchi va xizmatchilar uchun qisqartirilgan ish kuni va ish haftasini joriy etish ko'zda tutilgan.

– Homiladorlik va tug'ruq ta'tilining muddati 126 kun etib belgilangan (tug'ilishdan oldin 70 kun, tug'ruqdan keyin 56 kun).

– Bolalarni parvarishlash uchun 3 yilgacha ish o'rne saqlangan holda qo'shimcha ta'til berilgan.

### **3. Yosh farzandi bor ayol ishchi va xizmatchilar uchun yaratilgan imtiyozlar**

– Yosh farzandli onalar uchun ular uchun qulay ish grafigi tuzilgan.

– Ko'krak suti bilan farzandini parvarishlaydigan ayol ishchi va xizmatchilarga har 3 soatda farzandini ovqatlantirish uchun 30 daqiqa tanaffus berilgan.

– Bog'cha yoshidagi farzandi bor ayollarning farzandlari bolalar bog'chalari va maktabgacha ta'lim muassasalari sanoat korxonalarida qoshida tashkil etilgan.



#### **4. Zararli va og'ir mehnat sharoitlaridan himoyalash borasidagi imtiyozlar**

– Inson sog'lig'i uchun zararli bo'lgan moddalar bilan ishlanadigan mehnat sharoitlaridan ayollar ozod etilgan, agarda ayollar bunday mehnat jarayonlariga jalb etilganda ular uchun taqdi etiladigan himoya vositalarining sifatiga alohida e'tibor qaratilgan.

– Ayollar mehat qilayotgan sexlarda va boshqa ishlab chiqarish bo'limlarida havo almashtirish jihozlarining faoliyatiga alohida e'tibor qaratilgan.

#### **5. Mehnat qonunchiligida ayol mehnatkashlar uchun joriy etilgan moliyaviy yordam va imtiyozlar:**

– Homiladorlik va tug'ruq nafaqasi davlat byudjeti mablag'lari hisobidan to'langan.

– Kam ta'minlangan va ko'p farzandli ayollar oilalariga moddiy yordam ko'rsatish bo'yicha dasturlar amalga oshirilgan.

– Ayollarga ijtimoiy sug'urta va pensiya ta'minoti bo'yicha qo'shimcha imtiyozlar berilgan.

#### **6. Ayol ishchi va xizmatchilarning ta'lim olishi va o'z malakasini oshirishi uchun yaratilgan imtiyozlar:**

– Ayol ishchi va xizmatchilar uchun maxsus texnika va malaka oshirish kurslari tashkil etilgan

– Ishlab chiqarish bilan bir vaqtda ta'lim olish imkoniyati (masalan kechki ta'lim yoki sirtqi ta'lim) yaratilgan.

Ushbu imtiyozlar SSSR Oliy Soveti tomonidan 1971-yilda yangi tahrirda qabul qilingan Mehnat kodeksida va O'zbekiston SSR Oliy Soveti tomonidan 1971-yil 17-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston SSR Mehnat qonunlari kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi qonunda belgilab qo'yilgan [1.3-bet]. Sobiq Sovet tuzumi davrida ushbu chora tadbirlarni amalga oshirish orqali ayollarning mehnatini muhofaza qilish va ularning ijtimoiy xavfsizligini ta'minlash jarayonlari orqali ayollarni sanoatda va iqtisodiyotda muhim kuch sifatida faol ishtirok etishi rag'batlantirilgan. Bundan tashqari SSSR Oliy Soveti va O'zbekiston Oliy Soveti tomonidan 1944-, 1956-, 1968-yillarda qilingan "Ayollar mehnatini muhofaza qilish va onalikni qo'llab quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarda ayollar uchun maxsus ishlash sharoitlarini belgilash, bolalar tarbiyasiga ko'maklashish va ayollarning ijtimoiy muhofaza qilishga qaratilgan.

Andijon oblastidagi sanoat korxonalarida ayol ishchilar uchun qulay mehnat sharoitlarini yaratishda muhim jarayonlardan biri bo'lgan yosh farzandli ayol ishchilarning farzandlari uchun bolalar bog'chalarini tashkil etishga 1946-yilda ham alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, Анджон ОБЛПРОМСТРАХКАССА (Промышленно-строительная страховая касса- keying o'rinlarda Sanoat qurilish sug'urta jamg'armasi deb ketiladi-) tomonidan Andijon shahrining o'zida 5 dona bolalar bog'chalari tashkil etilgan. Ana shunday bolalar bog'chalaridan biri shaharning T.Shevchenko nomidagi ko'chasida joylashgan. Ushbu bolalar bog'chasi 50 o'rinli bo'lib, unda Andijon shahridagi "Krasnaya Zvezda", "Tikuvchi", "Mehnat guli" artellarida mehnat qilayotgan ayol mehnatkashlarning farzandlari tarbiyalangan. Andijon shahrining Qizil Yulduz nomli ko'chasida joylashgan 7-sonli bolalar bog'chasida "Pillakash", "Bolshevik" "Qizil botir", "Vatan uchun", "Qizil O'zbekiston" artellarida mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan ayol ishchilarning farzandlari tarbiyalangan. 1946-yilda oblastdagi sanoat korxonalarida mehnat qilayotgan yosh farzandli ayol ishchi va xizmatchilarning farzandlari uchun nafaqat Andijon shahrida, balki oblastning bir qator tumanlarida ham bolalar bog'chalari tashkil etilgan. Masalan, Andijon oblastining Shaxrixon rayon markazi Shaxrixon

shahrida Beregovaya ko'chasida 1946-yilda tashkil etilgan bolalar bog'chasi ushbu rayonning "Sverdlov", "Yangi yo'l", "Madaniyat" artellarida mehnat qilayotgan ayol ishchilarning farzandlari uchun xizmat qilgan [2.4-bet]. Sanoat qurilish sug'urta jamg'armasi tomonidan, shuningdek, oblastdagi artellarda mehnat qilib kelayotgan ishchi va xizmatchilarni chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazish yuzasidan samarali ishlar amalga oshirilgan. 1947-yilda o'tkazilgan ana shunday chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik natijasida artellarda mehnat qilayotgan xotin-qizlar orasida sog'lig'ida muammolarga ega bo'lganlarining soni ko'pchilikni tashkil etishi aniqlangan. Ushbu ishchilarga Sanoat qurilish sug'urta jamg'armasi tomonidan Farg'ona oblastidagi Shohimardon, Qirg'iziston SSR ning Jalolobod shahridagi, RSFRSning Omsk shahridagi dam olish uylariga davolanish uchun yo'llanmalar taqdim etilgan [3.14-bet].

Bu davrda Namangan oblastidagi sanoatning turli tarmoqlariga oid korxonalarda minglab ayol ishchi xizmatchilar mehnat faoliyati bilan shug'ullangan. Ayniqsa, bu davrda Namangan oblastida faoliyat olib borayotgan yengil sanoatning tikuvchilik, ipak ishlab chiqarish fabrikalarida, badiiy buyumlar ishlab chiqarish fabrikalarida, oziq-ovqat sanoatiga taalluqli konserva zavodlarida, hon mahsulotlari ishlab chiqarish kombinatlarida mehnat qilayotgan ishchilarning asosiy qismini xotin-qizlar tashkil etganligini ko'rish mumkin. Oblastdagi eng yirik sanoat korxonalari hisoblangan 1-besh yillik artelida, 2-sonli tikuvchilik fabrikasida, Namangan Konserva zavodida, Namangan non kombinatida, Namangan sut-moy zavodlarida ko'p sonli xotin-qizlar turli lavozimlarda mehnat qilganlar. Bundan tashqari mahalliy sanoat boshqarmasi tasarrufidagi artellarda ham ko'p sonli ayollar mehnat faoliyatlari bilan shug'ullanib kelganlar. Misol uchun Namangan shahrida joylashgan Stalin nomidagi, Yangi rivojliya nomidagi artellarda ham mehnatkashlar safida ko'p sonli ayol ishchilar mavjud bo'lganlar. Xususan, Yangi rivojliya artelida gilam to'qish sexida asosiy ishchi kuchi ayollardan iborat bo'lgan [4.1-bet]. 1950-yilda VLSKM 25 yilligi nomidagi Namangan konserva zavodida mehnat qilayotgan xotin-qizlar uchun talab darajasidagi mehnat muhofazasini joriy etish bo'yicha bir qator ijobiy ishlar bajarilgan. Buning natijasida 1950-yilning iyul oyiga kelib iyul oyi uchun belgilangan mahsulot ishlab chiqarish rejasi muddatidan 4 kun oldin bajarilgan va bundan 7 oylik mehnat majburiyati ham to'liq bajarilgan.

Namangan oblastidagi nogironlar kooperatsiyasi tarkibidagi artellarda mehnat qilayotgan xotin-qizlarning soni 1950-yilda ko'pchilikni tashkil etmagan. Bu haqida 1950-yil 15-avgustda Namangan shahrida bo'lib o'tgan oblast nogironlar kooperatsiyasining syezdida ta'kidlab o'tilgan. Syezdda, shuningdek, kooperatsiya boshqaruvida mahalliy millatlardan bo'lgan xotin-qizlar soni kam ekanligi va ularni jamoat ishlariga jalb etishni kuchaytirish kerakligi aytib o'tilgan [5.3-bet].

Shuningdek, bu davrda nisbatan og'ir mehnat sharoitiga ega paxtani qayta ishlash zavodlarida, kimyo sanoati korxonalarida, qurilish va binokorlik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi uysozlik kombinatlari va g'isht ishlab chiqarish zavodlarida ham ayol ishchi va xizmatchilar mehnat qilganlar. Misol uchun Uchqo'rg'on rayonidagi Qo'g'ay paxta tozalash zavodida Olga Yatsenko, Tatyana Andrianovalar smena masterlari lavozimida mehnat qilganlar [6.1-bet]. Keyingi yillarda ham Andijon oblastidagi sanoat korxonalarida mehnat qilayotgan xotin-qizlarning mehnat muhofazasini tashkil etish borasida bir qancha tadbirlar amalga oshirib borilgan. Bu jarayonlarda sanoat korxonalaridagi ayol ishchi va xizmatchilarning mehnat sharoitlarini talab darajasida

bo'lishini ta'minlash, ularning sog'lig'ini saqlash va qabul qilingan me'yorlar asosida xavfsiz ish sharoitlarini tashkil etish jarayonlari bilan sanoat korxonalarining boshqaruv ma'muriyatlari, mahalliy kasaba uyushma qo'mitalari, zavod va fabrikalarda tashkil etilgan xotin-qizlar qo'mitalari shug'ullangan. Xususan, 1965-yilda Andijon Oblsovprom (Oblasnoy sovet profsoyuzov – Oblast kasaba uyushma ittifoqlari kengashi keyingi o'rinlarda shunday nom bilan yuritiladi) tomonidan sanoat korxonalarida mehnat qilayotgan xotin-qizlarning mehnat muhofazasining muhim tadbirlaridan biri hisoblangan homiladorlik ta'tili uchun 79 ming so'm miqdorida ta'til pul mablag'lari, farzand ko'rganlik uchun 148 ming so'm miqdorida mukofot pullari ajratilgan. Bundan tashqari sanoat korxonalarining ayol ishchi va xizmatchilaridan 102 nafariga davolanish va dam olish uchun dam olish uylariga va sanatoriylarga yo'llanmalar taqdim etilgan [7.20-bet]. Andijon oblastidagi zavod va fabrikalardagi mahalliy kasaba uyushma qo'mitalari tomonidan ijtimoiy sug'urta fondi mablag'lari hisobidan zavod va fabrikalarda mehnat qilayotgan homilador ayol ishchilarning 385 nafariga, farzand ko'rgan ayol ishchi va xizmatchilardan 32 nafariga moddiy yordam pul mablag'lari berilgan. Lekin shunga qaramasdan oblastdagi sanoat korxonalarida mavjud mehnat sharoitlarini qoniqarsiz darajada ekanligi natijasida mehnat qilayotgan ayollar o'rtasida turli kasalliklar bilan kasallanish holatlarining soni keskin ko'paygan. Ayniqsa, bunday salbiy holatlar mashinasozlik sanoati, kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarda, neftni qayta ishlash sanoatiga mansub korxonalarda mehnat qilayotgan xotin-qizlar o'rtasida ko'p uchragan. Bunday turdagi korxonalarda mehnat qilayotgan xotin-qizlarning nevrologik kasalliklar, radikulit, bronxit va ayollarning jinsiy kasalliklari bilan kasallanishi holatlari ko'p marotaba yuzaga kelayotganligi aniqlangan [8.34-bet]. 1968-yilda Andijon oblastidagi to'qimachilik va yengil sanoat korxonalarida mehnat qilayotgan xotin-qizlar uchun to'qimachilik va yengil sanoat xodimlari oblast soveti tomonidan homiladorlik ta'tili va farzand ko'rish munosabati bilan beriladigan mukofot pullari uchun yillik moliyaviy rejada 44 ming 700 so'm miqdoridagi pul mablag'larini ajratish ko'zda tutilgan bo'lib amalda esa 80 ming 500 so'm miqdoridagi pul mablag'lari ana shu maqsadlarda sarflangan. Bu jarayonda ayol ishchi va xizmatchilar uchun to'langan pul mablag'larining miqdori ortib ketganligi yil davomida oblastdagi to'quvchilik va tikuvchilik sanoat korxonalarida mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan xotin-qizlarning soni ortib borishi bilan bog'liq bo'lgan.[9.41-bet]

Sobiq Sovet Ittifoqida xotin-qizlarning jamiyat hayotida faolligini oshirish hamda ularning siyosiy faoliyatini qo'llab quvvatlash uchun maqsadli tadbirlar amalga oshirib borilgan. Bu jarayonlar sanoat korxonalaridagi xotin-qizlar saflarida mehnat qilayotgan ishlab chiqarish ilg'orlarini faoliyatini qo'llab quvvatlash va ularning faoliyatini targ'ib qilish masalalariga va ularni siyosiy organlarda faoliyatini targ'ibotiga alohida e'tibor qaratishda aks etgan. Masalan, Andijon poyabzal fabrikasida mehnat qilayotgan ilg'or ishchilardan biri Ilniyaz Gabitova 1972-yilda poyabzal fabrikasi ishchilari tomonidan Andijon shahar xalq deputatlari sovetiga deputat etib saylangan. Ilniyaz Gabitova shahar deputatlari sovetidagi faoliyati davomida o'zining saylovchilarining muammolarni bartaraf etish bo'yicha murojaatlarini ijobiy hal qilishda ma'lum bir yutuqlarga erishgan. Masalan, poyabzal fabrikasining ishchisi F. Xusanbekovning fabrika hisobxonasi tomonidan oylik maoshini hisoblashda yuzaga kelgan muammosini ijobiy hal etib yetkazilgan zararni qoplanishiga muvaffaq bo'lingan. Bundan tashqari I. Gabitovaning sa'y-harakatlari bilan ushbu fabrikada mehnat qilayotgan L. Yo'ldosheva,



X. Sotoboldieyavalarga uy qurish uchun fabrika ma'muriyati tomonidan qurilish ashyolari ajratilgan. Quvonarlisi I. Gabitova bilan poyabzal fabrikasining mahalliy kasaba uyushma qo'mitasi hamkorlikda fabrikada mehnat qilayotgan xotin-qizlarning mehnat sharoitlarini sifatini yaxshilash bo'yicha samarali ishlarni amalga oshirilgan.[10.1-bet]

### **XULOSA**

Andijon va Namangan viloyatlari Davlat arxivlari fondlarida saqlanayotgan o'tgan asrning 1946–1970-yillariga oid bo'lgan viloyatda faoliyat olib borgan sanoat korxonalarining arxiv hujjatlarini, shuningdek, Andijon viloyat Kasaba uyushma ittifoqlari viloyat Kengashining arxiv hujjatlarini o'rganish va tahlil qilish jarayonida shunday xulosalar shakllandi. Sovet Ittifoqidagi yakka-hukmron partiya KPSS dasturlarida, ko'rsatmalarida kommunistik partiyaning zarbdor kuchi deb hisoblangan ishchilar va xizmatchilar uchun qulay mehnat sharoitlari, farovon moddiy turmush tarzi yaratish bo'yicha katta va'dalar berilgan bo'lsa-da, amalda 1947–1970-yillarda sanoatning turli tarmoqlarida mehnat qilayotgan muhandis va texnik xodimlar, ishchi va xizmatchilar saflarida bo'lgan xotin-qizlar uchun ko'rsatilgan tibbiy xizmat va ularning sog'liklarini tiklash uchun turli sanatoriylar va sog'lomlashtirish kurortlariga yuborish jarayonlari talab darajasida bo'lmaganligi, zavod va fabrikalarda tibbiy xizmat va tibbiy uskunalari uchun ko'p miqdorda mablag'lar ajratilgan bo'lsa-da, tibbiy-sog'lomlashtirish yuzasidan belgilangan vazifalar asosan rasmiy hujjatlardagina talab darajasida bo'lganligi ma'lum bo'ldi. Ayniqsa, Andijon viloyatidagi mashinasozlik va kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqaruvchi zavod va fabrikalarda ishchilarning ishlab chiqarish jarayonlarida jarohatlanishi, kasbiy kasalliklar bilan kasallanish kabi salbiy holatlarning miqdori kamaymaganligi viloyatdagi sanoat korxonalarida ishchilarning mehnat muhofazasining muhim jihati hisoblangan tibbiy-sog'lomlashtirish tadbirlarining talab darasida bo'lmaganligini ko'rsatadi. To'g'ri 1960-yillardan boshlab Andijon viloyatidagi sanoat korxonalarida ayol ishchi va xizmatchilar uchun ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat va ularning sog'lomlashtirish muassasalariga yuborish orqali ularning sog'liklarini yaxshilash va buning natijasida ularning mehnat qilish qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha ba'zi ijobiy o'zgarishlar yuz bergan. Lekin sanoat korxonalarida mavjud ishlab chiqarish jihozlarining ma'nan eskirganligi, zavod va fabrikalardagi havoni tozalash uskunalarining talab darajasida ishlamasligi, sanoat korxonalarida sanoat sanitariyasi talablarini qoniqarsiz holatda ekanligi, ishchi va xizmatchilarga berilayotgan shaxsiy himoya vositalarining sifatsiz darajada ekanligi natijasida ayol ishchi va xizmatchilarning texnogen avariya natijasida jarohat olishi va buning natijasida mehnat qilish qobiliyatini vaqtincha yoki butunlay yo'qotish jarayonlari, ularning revmatizm, nafas olish yo'llari kasalliklari bilan kasallanishi, kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqaruvchi zavodlarda ishchilarning jigar faoliyati buzilishi kasalligining og'ir ko'rinishi kabi kasalliklar bilan kasallanishi singari salbiy jarayonlar davom etib kelgan.

Maqolada tadqiq etilgan jarayonlarni bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan sanoat korxonalarida, xususan, Andijon, Namangan viloyatlarida faoliyat olib borayotgan zavod va fabrikalarda mehnat qilayotgan xotin-qizlar uchun amalga oshirilayotgan tibbiy-sog'lomlashtirish tadbirlari bilan qiyoslash orqali bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida davlat rahbari va hukumat tomonidan mehnatkashlarni sog'liklarini saqlash va ularga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishni amalga oshirish, shuningdek, xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish yuzasidan juda ko'plab ijobiy tadbirlar amalga oshirilayotganligini guvohi bo'lamiz. Albatta bu jarayonda bugungi kunda mamlakatimiz davlat rahbari va hukumati tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy siyosatda inson omili yuksak o'ringa qo'yilganligi alohida ahamiyat kasb etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Lex.uz.O'zbekiston Oliy Sovetining Vedemostlari 1971-yil №34.
2. Andijon Davlat arxivi.601-fond.1-ro'yhat.4-ish.4-bet.
3. Andijon Davlat arxivi.601-fond.1-ro'yhat.41-ish.14-bet.
4. "Yubileyga atab gilam to'qilmoqda" Stalin xaqiqati.7.01.1950.14-son 1-bet.
5. A.Tilla."Oblast invalidlar kooperatsiyasi soyuzining syezdi" Stalin xaqiqati. 19.08.1950. 164-son 3- bet.
6. "Ilg'or kollektiv ahdi" Stalin xaqiqati gazetasi.12.02.1949.29-son(4310).1-bet.
7. Andijon viloyat Davlat arxivi.618-fond.1-ro'yhat.1-ish.20-bet.
8. Andijon viloyat Davlat arxivi.618-fond.1-ro'yhat.1-ish.34-bet.
9. Andijon viloyat Davlat arxivi.618-fond.1-ro'yhat.34-ish.41-bet.
10. I.Shabanov. "Ishonch katta baxt".Kommunist gazetasi.22.01.1972.16-son.1-bet.